

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Ahmad Mahfuz Umar hikoyalarida qo'llanilgan harakatni ifodalovchi
noto'g'ri fe'llarning semantic tasnifi**

Bajardi: Arab filologiyasi ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi kurs
talabasi Abdukarimov Lochinbek_____
Ilmiy rahbar: Arab filologiyasi kafedrası
Katta o'qituvchisi Usmonova N.H._____

Abdukarimov Lochinbekning "Ahmad Mahfuz Umar hikoyalarida harakatni ifodalovchi noto'g'ri fe'llarning semantik tahlili" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishida arab tilidagi fe'llar va ularning turlari umumiy tarzda bayon etilgan.

BMI 2 qismdan iborat. 1. Qismda hikoyalarda qo'llanilgan hamzali ikkilangan va illatl fe'llarning morfologik va semantik tahlili.

2 qismida esa fe'llarning statistik, morfologik va semantik tahlili berilgan. Bundan tashqari fe'llarga oid arab nahvchilari va mashhur rus arabshunos olimlarning fikrlari qiyosiy ishda talqin etilgan.

Toshkent -2012

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Fe'l haqida umumiy ma'lumot	
1.1 Arab tilida fe'l va uning turlari.....	7
1.2 Noto'g'ri fe'llarning arab, rus va o'zbek nahvchilari asarlari bo'yicha qiyosi.....	9
II bob. Ahmad Mahfuz Umar hikoyalarida noto'g'ri fe'llar	
2.1 Asarda qo'llanilgan hamzali va ikkilangan fe'llar hamda illatli fe'llarning morfologik va semantik tahlili.....	26
2.2 Asarda qo'llanilgan zaif fe'llar va ularning statistik, morfologik va semantik tahlili.....	41
Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targʻib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma’naviy tarbiyalashni asosi boʻlmogʻi kerak”, - deb aytadi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov¹.

Mumtoz arab tilining leksik va grammatik shakllanishi johiliya davri (V-VII asrlar) shoirlarining ogʻzaki ijodlarida namayon boʻla boshladi. Qurʼoni karimning nozil boʻlishi natijasida arab tili badiiyati yanada goʻzallashadi, grammatik meʼyorlari mukammallashdi. VII-IX asrlarda arab tili grammatikasi ishlab chiqildi va islom dini yoyilgan oʻlkalarda rasmiy va ilmiy til boʻlib qoldi. Ushbu til leksik jihatdan biroz oʻzgargan holda, hozirga qadar arablarning adabiy tili boʻlib kelmoqda².

Mustaqillikni qoʻlga kiritganimizdan soʻng chet tillarini oʻrganishga boʻlgan qiziqish, jumladan, arab tilining koʻpchilik tomonidan sevib oʻrganilishi, unga boʻlgan ishtiyoqning yaqqol namunasidir.

Arab davlatlari bilan olib borayotgan siyosiy, maʼdaniy va iqtisodiy aloqalar, biz arabshunoslar oldiga, nafaqat arab tilini, balki, arablarning boy tarixi, maʼdaniyati va shunga oʻxshash boshqa jihatlarini puxta oʻrganish vazifasini qoʻyadi, shuningdek hozirgi dunyo xaritasida mavjud boʻlgan 20 dan ortiq boʻlgan arab mamlakatlari bilan diplomatik, ilmiy-maʼrifiy, savdo-sotiq, turizm va boshqa juda koʻp sohalaridagi oʻzaro aloqalarimiz ham arab tilini chuqur oʻzlashtirishimizni talab qilmoqda.

Taʼlim sohasida ham arab tilini oʻrgatish va oʻrganish jarayonida morfologiya va sintaksis masalalarining davrimizga qadar oʻz ilmiy qiymatini yoʻqotmaganligi va bu borada nodir arab tilini tilshunoslik nuqtai-nazaridan oʻrganish va uni hayotga tatbiq etish ham eng asosiy, hamda, birlamchi vazifalaridan hisoblanadi.

¹ Karimov I.A Maʼnaviy yuksalish yoʻlida Toshkent 1998y 10-bet

² Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi T. 1. 368-bet

Arab tili qadimiy va nodir til bo'lishi bilan bir qatorda o'zining mukammal grammatik qurilishiga, go'zal lahjalariga va betakror so'z boyligiga egadir.

Sharqshunoslikning bir bo'lagi bo'lgan arab tilshunosligini tanlagan ilmu toliblar shu sohaning turli jihatlarini mukammal o'rganishga intilishadi.

Sharq xalqlari xususan, O'rta Osiyo xalqlari hayotida arab tili qadimdan o'zining beqiyos o'rniga egadir. Chunki dunyodagi ko'pgina fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimizdan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinl, Ismoil al-Buxoriy, Mahmud az-Zamaxshariylar aynan shu tilda ijod qilganlar va shu tilning yetuk bilimdonlari bo'lganlar. Bu yesa biz arabshunoslar oldiga nafaqat arab tilini, balki arablarning boy tarixi, madaniyati va shunga o'xshash boshqa jihatlarini puxta o'rganish vazifasini qo'yadi. Shuningdek arab tilini mukammal o'rganish bilan bir qatorda, uning boshqa tillardan farqli bo'lgan xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishimiz "Ahmad Mahfuz Umar hikoyalarida harakatni ifodalovchi noto'g'ri fe'llarning semantik tahlili" mavzuida bo'lib, bugungi kunda bu mavzuni o'rganib keng ommaga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, noto'g'ri fe'llarning arab va o'zbek-rus manbalaridagi kelish farqlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Yana shuni ta'kidlash joizki, mazkur mavzuning asl arab manbalarida, hamda zamonaviy arab tili kitoblarida, asarlarida qay tarzda ifoda etganini taqqoslash qiyosiy tahlil qilish ham ishimizning dolzarbligini yanada oshirishga misol bo'la oladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bitiruv-malakaviy ishimiz mavzusi bo'lgan "Ahmad Mahfuz Umar hikoyalarida qo'llanilgan harakatni ifodalovchi noto'g'ri fe'llarning semantik tahlili" bo'lib, bu mavzu umumiy tarzda arab va ajam tadqiqotchilari tomonidan ko'p o'rganilgan. Asosan bu mavzu zamonaviy arab nahvchi olimlari bo'lmish Mustafo G'alayiniy, Hifni Nosif, Antuan Dahdahlar tomonidan ham atroflicha ko'rib chiqilgan. Ularning asarlarida mavzuga oid fikr mulohazalar, sharhlar o'z ifodasini topgan. Har bir alloma bu mavzuga turlicha

yondoshganlar. O‘zbek va rus arabshunoslari tomonidan esa maskur mavzu u yoki bu jihatdan o‘rganilgan.

B.M.Grande noto‘g‘ri fe’llarni atroflicha o‘rganib, o‘z asarida uni yoritib bergan. G.Sh.Sharbatov, B.Z.Xolidov, A.Abdujabborov. N.Ibrohimov, M.Yusupov va boshqalar arab tilidagi noto‘g‘ri fe’llarni muxtasar tushuntirib o‘tganlar. Bu bitiruv malakaviy ishimizda arab nahvchilari va o‘zbek-rus arabshunos olimlarining fikrini qiyosiy tahlil qilishga harakat qilib, mazkur masalada asl arab manbalaridagi fikr mulohazalarni jamlashga urindik.

Bitiruv-malakaviy ishning manbalari. Bitiruv-malakaviy ishimizni yozishda biz, asosiy manba sifatida B.M.Grandening “Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii” va Mustafoning G‘alayiniyning “Jami’u-d-durusi-l arabiyati” asarlaridan foydalandik. O‘zbek va rus arabshunoslari bu mavzuga bir xil yondoshganligi sababli o‘zbek arabshunoslari asarlaridan kamroq foydalandik.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Ushbu ilmiy ishimizni yozishdan maqsad Ahmad Mahfuz Umar hikoyalardagi noto‘g‘ri fe’llarni semantik, morfologik hamda statistik tahlil qilib chiqishdir. Shuningdek, bu mavzuning 1-bobida noto‘g‘ri fe’llarga doir qoidalarni arab va rus manbalariga suyanan holda keltirib qiyoslashdir. Bu kabi maqsadlarimizni amalga oshirish uchun biz o‘z oldimizga quyidagi vazifalarni qo‘ydik:

1. Arab va rus nahvchi olimlarining noto‘g‘ri fe’llarni o‘rganishdagi uslublarini yoritish
2. Hikoyalardagi fe’llarni arab nahvi uslubida morfologik guruhlariga ajratish
3. Harakatni turlariga qarab ularni ma’naviy qismlarga ajratish

Bitiruv malakaviy ishining obyekti arab tilidagi noto‘g‘ri fe’llarning o‘ziga xos xususiyatlari shu jumladan, morfologik, semantik va statistik tahlili.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti Ahmad Mahfuz Umarning الإنذار الممزق hikoyalar to‘plamidir.

Bitiruv – malakaviy ishimizning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish. To‘rtta bandni o‘z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. FE'L HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1 Arab tilida fe'l va uning turlari

الفعل

الفعل ما دلّ على معنى في نفسه مُقترن بزمانٍ كجاءَ ويَجِيءُ وجيءَ.
وعلامته أن يقبلَ "قَدْ" أو "السين" أو سوف، أو "تاء التانيث الساكنة"، أو "ضمير الفاعل"، أو "نون التوكيد" مثلُ قد قامَ. قد يقومُ. ستذهبُ. سوف نذهبُ. قامتُ. قمتُ. ليكتبنَ. ليكتبنَ. اكتبنَ. اكتبنَ".

An'anaga ko'ra arab nahvshunoslari arab tilidagi barcha so'zlarni asosan uchta katta guruhga bo'lib o'rganadilar. Ular:

اسم – ism: ot, sifatdosh, son, masdar, sifat, olmoshlar;

فعل – fe'l: fe'lning zamonlari va mayillari;

حرف – yordamchi so'zlar.

Bular orasida fe'llar arab tili grammatikasida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki arab tilidagi juda ko'p ismlar ham asosan fe'l o'zagidan yasaladi.

Boshqa tillardagi kabi arab tilida ham predmetning ish-harakatini ifodalaydigan mustaqil so'zlar fe'l deyiladi.¹

Arab tilida fe'l o'zining shaxs va sonda tuslanishi bilan ajralib turadi. Arab nahvchilari fe'lni ism va yuklamalarga qarama qarshi qo'yadilar.²

Misrlik mashhur nahvshunos olimlardan biri Abdul Aziz Muhammad Fohir o'zining "توضيح النحو", ya'ni "Grammatikani sharhlash" nomli nahvga oid asarida shunday yozadi:

و الفعل: ما دل على معنى في نفسه مقترنا بزمان، سواء كان وقوع هذا المعنى في الزمان الماضي، او في الحال ام في المستقبل³

Ya'ni: Fe'l o'zida zamonning ma'nosigi dalolat qiladi va bu ma'no o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamonda sodir bo'lishi mumkin.

¹ Mirzaev M. O'zbek tili. –T.: O'qituvchi, 1970. –B. 132

² Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvesnenii. –M.,2001. –S. 116

³ عبد العزيز محمد فاخر. توضيح النحو. الجزء الاول. مصر. القاهرة. الازهار. 1995. ص. 9

Fe'l turkumiga oid barcha so'zlar uchun umumiy xususiyat zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisani ifodalashdir. Ana shu umumiy xususiyatga ko'ra fe'llarning barchasi bir umumiy so'roqqa nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'ladi. Fe'llar boshqa so'zlarga nisbatan leksik-semantik va grammatik xususiyatlari jihatidan nihoyatda murakkabdir.¹

Ish harakat yoki holatni bildiruvchi bu so'z turkumi arab tili grammatikasida juda katta o'rin tutadi, chunki boshqa turkum so'zlari ham asosan, yuqorida aytib o'tganimizdek, fe'l o'zaklaridan yasaladi.

Fe'llar uch o'zak undoshli va to'rt o'zak undoshli bo'ladi. Fe'llarning ko'pchiligini uch o'zak undoshlilar tashkil qiladi.

Bu o'zak undoshlar atrofidagi unlilarni o'zgartirish, u yoki bu o'zak undoshni kiritish yo'li bilan fe'llarning hosila boblari yasaladi. Hosila shaklidagi fe'llarning, tabiiyki mazmunida ham o'zgarish sodir bo'ladi. Hosila shakllarni boblar deb atash qabul qilingan. Uch o'zak undoshli fe'llarning 15ta, to'rt o'zak undoshli fe'llarning 4ta bobi mavjud.

Bu boblarga ularni o'zaro farqlash uchun nom qo'yilgan. Arab tadqiqotchilari uch o'zak undoshli fe'llarning boshlang'ich shaklini فعل ثلاثي, to'rt o'zak undoshli fe'lning boshlang'ich shaklini esa فعل رباعي مجرد deb, qolgan boblarni esa shu bobning harakat nomi (masdari) atamasi bilan ataganlar, masalan: باب التفعيل "taf'il bobi", باب الافتعال "iftial bobi" va hokazo.

Zamonaviy adabiyotlarda bu boblarga tartib raqami berilgan va ular rim raqami bilan ifodalanadi, masalan: II bobi, VII bobi, XI bobi va h.k.

Fn'lning barcha boblari o'tgan va hozirgi-kelasi zamonga ega. Ular shaxsda, sonda, jinsda tuslanadi. Fe'llar arab tilida aniq va majhul nisbatga ega. Bundan tashqari fe'llarning 5ta mayillari mavjud: darak mayli, shart, buyruq, istak va kuchaytiruv mayillari.

O'zbek tilidan farqli o'laroq arab tilidagi fe'llar infinitiv, ya'ni fe'lning noaniq shakligi ega emas. Shuning uchun zamonaviy lug'atlarda fe'lning o'tgan

¹ Shoabduraxmonov Sh. Xozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1980. –B. 32

zamon III shaxs, birlik, muzakkar shakli shartli ravishda infinitiv sifatida qabul qilingan. Masalan: كتب bu fe'lining asli ma'nosi "u yozdi", shartli ma'nosi: yozmoq.

Uch o'zak undoshli fe'llar arab tilida fe'llarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular o'n beshta bobda aks ettirilgan. Shulardan o'nta bob hozirgi adabiy tilida ko'p qo'llaniladi. Qolgan beshta bob esa qadimgi arab tilida ishlatilgan, keyinchalik iste'moldan chiqib ketgan.¹

Arab tilida fe'l narsa(shaxs)ning harakat yo holatini ifodalaydi. Bu xususiyatga muvofiq, fe'llarni ikki turga ajratish mumkin: harakat bildiruvchi va holat bildiruvchi fe'llar. Arab tilida fe'llar o'timli va o'timsiz bo'lishi mumkin. Ma'lumki, har bir fe'l shaklida mujassamlangan zamon, undan anglashilgan ish-harakat yoki nutq lahzasiga munosabatini ko'rsatadi. Arab tilida fe'lining ikkita zamon shakli mavjud, ular: o'tgan va hozirgi-kelasi zamon.

1.2 Noto'g'ri fe'llarni arab, rus va o'zbek nahvchilari asarlari bo'yicha qiyosi.

Fe'l arab tilidagi eng katta mavzulardan bo'lib, nahvchi olimlar o'z asarlarida u haqda o'z uslublarida ma'lumot berganlar.

Jumladan, Mustafo G'alayiniyning العربية جامع kitobida fe'llar quyidagicha berilgan.

الفعل

الفعل ما دلّ على معنى في نفسه مُقْتَرِنٌ بِزَمَانٍ كَجَاءَ وَيَجِيءُ وَجِيءَ.
وعلامته أن يقبل "قَدْ" أو "السين" أو سوف، أو "تاء التانيث الساكنة"، أو "ضمير الفاعل"،
أو "نون التوكيد" مثل قد قامَ. قد يقومُ. ستذهبُ. سوف نذهبُ. قامتُ. قمتُ. ليكتبنَ. ليكتبنَ. اكتبنَ.
اكتبنَ"

Fe'l - zamonni mujassam etgan ma'noni bildiruvchi narsadir. misol: جاءَ
ويجيءُ وجيءُ

Uning belgisi تاء, السين, سوف, قد, sukunlik muannasni bildiruvchi ega bildiruvchi olmosh va ta'kid nunini qabul qilishidir. Misol:

¹ Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. –T., 1997, -B. 79

قد قام. قد يقوم. سذهب. سوف نذهب. قامت. قمت. ليكتب. ليكتب. اكتب. اكتب

Fe'ning tasniflanishi zamon, ism va morfologik jihatdan tasniflanadi. Shundan fe'ning morfologik jihatdan tasniflanishini ko'rib chiqamiz.

Fe'l ikki qismga bo'linadi. To'g'ri va illatli fe'llar.

Fe'l va uning turlari. To'g'ri va noto'g'ri fe'llarga tasniflanishi.

Fe'l harflarining kuchli va zaifligi e'tiboridan ikki qismga bo'linadi: الصحيح والمعقل, to'g'ri va noto'g'ri.

To'g'ri fe'llar o'zak harflari sog'lom bo'lgan fe'llardir.

Misol: كَتَبَ وَكَاتَبَ

Bu fe'llar uch tur bo'ladi: ومُضَاعَفٌ، ومهموزٌ، solim, hamzali, ikkilangan.

Solim fe'llar o'zak harflaridan bittasi ham illatli harflar bo'lmagan fe'llar. Ular hamzali ham, ikkilangan ham emas.

Misol: كَتَبَ وَذَهَبَ وَعَلَّمَ

Hamzali fe'llar o'zak harflaridan bittasi hamza bo'lgan fe'llardir.

Ular uch xil bo'ladi.

مهموزُ الفاء كأخذ

ومهموزُ العين كسأل

، ومهموزُ اللام كقرأ.

Ikkilangan fe'llar o'zak harflaridan bittasi ikki marta takrorlanib kelgan bo'ladi.

Ular ikki xil bo'ladi. Uch o'zakli fe'llarning ikkilangani va to'rt o'zakli fe'llarning ikkilangani. Misol:

مُضَاعَفٌ ثَلَاثِيٌّ كَمَدَّ وَمَرَّ،

مضاعفٌ رباعيٌّ كزَلَزَلٌ ودمدمٌ

Agar ikkilangandan keyin boshqa harf orttirilsa كَعْظَمٌ وَشَدَبٌ واشتَدَّ وادهامٌ bu fe'l ikkilangan hisoblanmaydi. واعشوشبٌ

Noto'g'ri fe'llar o'zak harflaridan bittasi illatli harf bo'ladi. Misol: وَعَدَ وَقَالَ وَرَمَى

Bu fe'llar to'rt tur bo'ladi.

Solimsifat, bo'sh, noqis va lafif fe'llar.

Solimsifat fe'llar birinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. Misol: وَعَدَ وَوَرِثَ

Bo'sh fe'llar o'rta o'zak harfi illatli bo'ladi. Misol: قَالَ وَبَاعَ

Noqis fe'llar oxirgi o'zak harfi illatli bo'ladi. Misol: رَضِيَ وَرَمَى

Lafif fe'llar ikkita o'zak harfi illatli bo'ladi. Misol: طَوَى وَوَفَى

Bu fe'llar ham ikki xil bo'ladi. Yonma yon lafif va ajralgan lafif.

Yonma yon lafif fe'llar ikki illatli o'zak harfi yonma yon kelgan fe'llar.

Misol: طَوَى وَنَوَى

Ajralgan lafif ikkita illatli harfi yonma yon kelmagan fe'llar. Misol: وَفَى وَوَقَى

Hozirgi zamon va zoida harflar qo'shilgan to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni o'tgan zamonda, zoida harflardan xoli qilgan holda tanib olinadi¹.

¹ مصطفى غليبي. جامع الدروس العربية. مصر. 2008

(الفعل وأقسامه) ضمن العنوان (الصحيح والمعتل) ينقسم الفعل - باعتبار قوة أحرفه وضعفها - إلى قسمين صحيح، ومعتل. فالصحيح ما كانت أحرفه الأصلية أحرفاً صحيحة مثل "كتب وكاتب". وهو ثلاثة أقسام سالم، ومهموز، ومضاعف. فالسالم ما لم يكن أحد أحرفه الأصلية حرف علة. ولا همزة، ولا مضعفاً، مثل "كتب وذهب وعلم". والمهموز ما كان أحد أحرفه الأصلية همزة. وهو ثلاثة أقسام مهموز الفاء كأخذ، ومهموز العين كسال، ومهموز اللام كقرأ. والمضاعف ما كان أحد أحرفه الأصلية مكرراً لغير زيادة. وهو قسمان مضاعف ثلاثي كمد ومز، ومضاعف رباعي كزَلَزَلٌ ودمدم. فإن كان المكرر زائداً - كعظم وشذب واشتد وادهام واعشوشب - فلا يكون الفعل مضاعفاً. والفعل المعتل ما كان أحد أحرفه الأصلية حرف علة، مثل "وعد وقال ورَمَى". وهو أربعة أقسام مثال، وأجوف، وناقص، ولفيف. فالمثال ما كانت فائزته حرف علة كوعَدَ ووَرِثَ. والأجوف ما كانت عينه حرف علة كقال وباع. والناقص ما كانت لامه حرف علة كرضي ورَمَى. واللفيف ما كان فيه حرفان من أحرف العلة أصليان، نحو "طوى ووفى". وهو قسمان ليف مفروق، ولفيف مفروق. فاللفيف المفروق ما كان حرفا العلة فيه مجتمعين، نحو "طوى ونوى". واللفيف المفروق ما كان حرفا العلة فيه مفترقين، نحو "وفى ووقى". ويُعرف الصحيح والمعتل من الأفعال - في المضارع والمزيد فيه - بالرجوع إلى الماضي المجرد.

B.M.Grande ning KURS ARABSKOY GRAMMATIKI v sravnitelno-istoricheskoy osveshenii kitobida noto‘g‘ri fe‘llar haqidagi ma’lumotlar quyidagicha berilgan.

Noto‘g‘ri fe‘llar

Noto‘g‘ri fe‘llarning tasnifi

Fe‘llar o‘zaklarining morfologik xususiyatlari, har xil o‘zaklarga mansublik nuqtai nazaridan to‘g‘ri va noto‘g‘ri fe‘llarga bo‘linadi.(Butun va butunmas fe‘llar). Bu bo‘limda noto‘g‘ri fe‘llarni tuslaganda alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan ba’zi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. “Noto‘g‘ri” degan atama to‘g‘ri fe‘llarga bo‘ysunmay, o‘zining alohida qonunlariga bo‘ysunadi. Shu nuqtai nazardan fe‘lning har xil tuslanishlari haqida gapirish mumkin, masalan, kuchli va zaif tuslanish. Bunday holatda o‘zak morfologik qurilishlar uchun baza sifatida olinadi. Shu sabab, ikkita undosh xarfga ega bo‘lgan o‘zaklar arab nahv tizimi asoschilari ishlab chiqqan sxemaga ko‘ra uch undoshdan tarkib topgan o‘zaklar deb qo‘rib chiqiladi.

Yana shuni eslatib o‘tamiz, “uch harfli” va boshqa atamalar odatda undosh tovushlar haqida ishatiladi, voqelikda esa gap harflar haqida emas.

Fe‘llarning tasniflanishi o‘zaklarning tasniflanishi kabidir. Noto‘g‘ri fe‘llar quyidagicha tasniflanadi:

- 1) Ikkilangan(فعل مضاعف yoki فعل أصم kar fe‘llar);
- 2) Hamzali fe‘llar (فعل مهموز)
- 3) Zaif fe‘llar (فعل معتل), ular quyidagilarga bo‘linadi:
 - a) to‘g‘riga o‘hshash fe‘llar (فعل مثال)
 - b) bo‘sh fe‘llar (فعل أجوف)
 - v) noqis fe‘llar (فعل ناقص)

4) ikkilangan noto‘g‘ri fe’llar

a) hamzali – ikkilangan fe’llar;

b) zaif – ikkilangan fe’llar

v) hamzali – zaif fe’llar

g) to‘liq zaif fe’llar

5) hamzali va ikkita harfi illati bor to‘liq zaif fe’llar.

Ikkilangan fe’llar

Ikkilangan fe’llar deb ikkinchi va uchinchi o‘zak harfi bir xil bo‘lgan fe’llarga aytiladi.

Ikkilangan fe’llarning yasallish xususiyatlari:

1. Bir xil o‘zak harflar bitta “tashdid” orqali ifodalanadigan tovushga birikadi. دَلَّ – دَلَّل
2. Agar bir xil o‘zakli harflarning birinchisidan keyin harakat kelsa, bu harakat orqaga, ya’ni sukunli harfga ko‘chadi.
3. Agar birinchi o‘zak harfdan keyin cho‘ziq alif bo‘lsa, keyingi ikki harf bir bir bilan tashdid orqali birlashadi. دَالَّ – دَالَّل

Birinchi o‘zak harfdan keyin boshqa cho‘ziq unli kelsa, tashdid hodisasi ro‘y bermaydi. دُوَّلَ

4. Tashdid xodisasi quidagi xolatlarda ro‘y beraydi:

- a) Agar ikki ozakli harfning ikkinchisidan so‘ng harakat bo‘lmay sukun bo‘lsa; فررت, دللت
- b) Agar ikki o‘zakli harfning birinchisidan keyin cho‘ziq unli bo‘lsa; مدلول, إدلال, تدليل

c) Agar ikki o'zakli harfning birinchisi ikkilangan bo'lsa; دَلَّل, تدَلَّل

Qisqa mayl ikki yo'l bilan yasaladi:

1) Majhul nisbatda qisqa unlini tushurib qoldirish bilan. Bunday holatda bo'g'inning oxirida ikkita unli birga bo'lib qoladi. Ikkita unlini bir joyda kelishini oldini olish (التقاء الساكنين) oxirgi unli harfdan keyin qisqa "a" unlisi yoki "i" qo'shiladi; يَفِرُّ, يَفِرُّ, يَفِرُّ

2) To'g'ri fe'l shakli orqali; masalan: يَذَلُّ, يَفِرُّ

Lekin, bunday qilish ikkilik yoki ko'plikdan keyin munosib emas. Ular birinchi yo'l orqali yasaladi. لم يذلا, لم يذلا, لم يذلا

Buyruq maylini yasash ham ushbu ikki yo'l orqali amalga oshiriladi.

Hamzali fe'llar

Hamzali fe'llar deb o'zak harflaridan bittasi hamza bo'lgan fe'llarga aytiladi. Ular 3 turga bo'linadi.

- a) Birinchi o'zak harfi hamzali;
- b) Ikkinchi o'zak harfi hamzali;
- c) Uchinchi o'zak harfi hamzali.

Hamzali fe'llarning "noto'g'riligi" yozuvda bilinadi. Chunki, u kelish o'rniga ko'ra taglik harflari o'zgarib keladi.

1. So'z boshida hamza uchun "alif" taglik bo'lib xizmat qiladi; أخذ, إذن

2. So'z o'rtasida:

a) Sukunli harfdan keyin fatha kelsa alif, kasra kelsa ي, zamma kelsa و taglik bo'lib xizmat qiladi; يسأل, يبيئس, يبيئس

Ba'zan, ي harfidan keyin kelgan fathaga "yoy" taglik bo'ladi. هيئة

b) Unli harfdan keyin harakat:

- 1) Agar hamza sukunli bo'lsa, uning tagligi harakatlarga mos ravishda qo'yiladi, fatha bo'lsa, "alif", kasra bo'lsa, yoy, zamma bo'lsa, vov bo'ladi. يأخذ, يؤخذ, خطئت
- 2) Agar hamza fathali bo'lsa ham, o'zidan oldin kelgan harakatnink tagligini oladi. قرئت, سؤال, تبطؤان.
- 3) Agar hamza kasrali bo'lsa, oldidagi harakat qanday bo'lishiga qaramasdan uning tagligi "ي" bo'ladi. سئل, سأل.
- 4) Agar hamza zammali bo'lsa, oldingi harakat kasra bo'lsa, tagligi "ي", agar fatha yoki zamma bo'lsa, tagligi "و" bo'ladi. يهنئون, يقرؤون, يبطؤون.

v) cho'ziq unlidan so'ng:

- 1) agar hamza kasrali yoki zammali bo'lsa, sukundan keyingi harakatga mos ravishda taglik qo'yiladi. سائل, تساؤل.
- 2) agar hamza fathalik bo'lsa, alif yoli vov harfidan keyin taglik qo'yilmay hamzani o'zi yoziladi, lekin yoy harfidan keyin hamza "ي" tagligini oladi. خطيئة
- g) agar hamzali alifdan keyin cho'ziq alif kelsa, ikkita alifning o'rniga maddali bitta alif yoziladi. أخذ-أخذ.

d) so'z oxirida:

- 1) harakatli harfdan keyin taglik ushbu harakatga bo'ysinadi. يقرأ, قارئ.
- 2) Sukunli harfdan so'ng yoki "ا,و,ي" dan so'ng hamza tagliksiz yoziladi. ظمء, استنقراء, مسوء, مشيء

Birinchi o'zak harfi hamzalangan fe'llar

Bunday fe'llarga ham yuqoridagi qoidalar qo'llaniladi va shu bilan birga, quyidagilar ham tadbiq etiladi.

Agar so'z halqumdan portlab chiqadigan tovush bilan boshlansa, keyingi portlovchi tovush tushurib qoldirilib, cho'zilish hodisasi ro'y beradi.

Bu orfografik jihatdan quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

a) “أ”ning o'rniga “إ” yoziladi. Masalan:

أكل fe'lidan birinchi shaxs birlik أَكَلْning o'rniga أَكَلْ yoziladi; 4-bob أَكَلْ ning o'rniga أَكَلْ, buyruq maylida أَكَلْning o'rniga أَكَلْ yoziladi.

أَتَلَفْ fe'lidan 8-bob hozirgi-kelasi zamon 1-shaxsni yasash uchun أَتَلَفْning o'rniga أَتَلَفْ yoziladi.

b) So'zning boshida أَوْ, إِنْ, أَوْ larning o'rniga أَوْ, إِنْ, أَوْ yoziladi.

أَمَلْ fe'lining buyruq shakli أَوْمَلْning o'rniga أَوْمَلْ yoziladi.

أَسْرَ fe'lining buyruq shakli إِنْسَرْning o'rniga إِنْسَرْ yoziladi.

8-bobda ishtirok etuvchi hamzali fe'llar “ت” harfi bilan assimilyatsiya bo'lib ketadi.

أَخَذَ-اتَّخَذَ

أَهْلَ-اتَّهَلَ

أَخَذَ, كَلَّ, مَرَّ fe'llarining buyruq shakli أَخَذَ, كَلَّ, مَرَّ bo'ladi.

Ba'zan, 6-bobdagi hamzali fe'lining hamzasi و harfi almashadi. تَأْمَرَda تَأْمَرَning o'rniga تَوَامَرَ yoziladi.

O'rta o'zagi hamzalangan fe'llar

O'rta o'zagi hamzalangan fe'llarga hamza belgisining yuqorida kelgan qoidalar qo'llaniladi.

Oxirgi o'zagi hamzalangan fe'llar

Bunday fe'llar turida halqumdan portlab chiquvchi tovush o'zakning oxirgi undoshi bo'ladi. Yuqorida ko'rilgan hamzaga taglik bo'luvchi harflardagidan ko'ra bu yerda taglik harflar ko'proq o'zgarishlarga uchraydi. Bunda fe'llarda hamza so'zning oxirida turishi yoki o'zidan keyin affikslarni olib kelishi mumkin. Bundan tashqari hamzadan oldin I bobda har xil harakatga ega ikkinchi o'zak fe'li bor. Bularni barchasi orforografiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. يَهْنِي، يَقْرَأ، يَبْطُو.

Bunday fe'llardan boshqa boblarni yasaganda I bobga nisbatan kamroq orfografik ta'sirlarga uchraydi. Majhul nisbatda hamza ikkinchi undoshning harakatiga mos taglikka ega bo'ladi. قُرِئَ Hozirgi-kelasi zamonda esa ikkinchi o'zak harfning harakati bo'lmish 'fatha'ga mos taglik harf oladi. يُقْرَأُ. 5 va 6-boblardan tashqari barcha boblarning hozirgi-kelasi zamoni ikkinchi o'zak harfning harakati bo'lmish 'kasra'ga mos taglik oladi, 5 va 6-boblar esa 'fatha'ga mos ravishda bo'ladi¹. نُهَيَّ، نَتَهْنَا.

Ikkilangan-hamzali fe'llar

Bu fe'llar ham tuslangan vaqtda yuqoridagi hamzaga taalluqli qoidalarga bo'ysunadi.

Zaif fe'llar

Zaif fe'llar deb o'zak harflaridan bittasi zaif و yoki ي undosh harfi bo'lgan fe'llarga aytiladi.

Mohiyatan olganda ular bo'g'inli harflar emasdir. ¹ harfi zaif o'zak undoshni anglatmaydi, u faqat unli tovushning cho'ziqligi yoki ء belgisiga taglikni bildiradi.

So'z boshida و va ي har qanday harakat bilan hech qanday o'zgarishlarga uchramaydi. Masalan: وصل، يبس، ووصل، ولادة.

So'z o'rtasida:

¹ B.M.Grande. KURS ARABSKOY GRAMMATIKI V SRAVNITELNO-ISTORICHESKOM OSVEIENII. Moskva.2001 207 - bet

و va ي o'z harakatiga ega bo'ladi.

Agar oldinda turgan sukunli harf bo'lsa, unda:

- 1) و va ي harfi o'z harakatini o'zidan oldin kelgan harfga beradi va undan keyin zaif undosh emas, cho'ziqlik belgisi و yoki ي qo'yiladi. Albatta ular harakatga mos ravishda qo'yiladi:

يُقُولُ < يُقَالُ, يُسِيرُ < يُسَارُ: و o'zidan beradi: و va ي

يَسِيرُ < يَسِيرُ, يَقُومُ < يَقُومُ: و o'zidan ي beradi: و va ي

يَقُومُ < يَقُومُ: و o'zidan و beradi: و o'zidan و

- 2) تقويم, تسيير, و dan keyin kelgan zaif undosh o'zrgarmasdan qoladi: تبيين, تبيان

Quyidagi holatlarda zaif harf tushib qoladi:

- a) 4 va 10 bob bo'sh fe'llarining masdarida, masalan: إقامة
- b) I bob fe'lining majhul nisbat sifatdoshida: مقول < مقول, مسيور < مسير

Agar zaif harfdan oldin harakatli har kelsa, unda:

- 1) Zaif harf o'z harakatiga ega bo'lsa, unda bu harakat tushib qoladi. U quyidagicha sodir bo'ladi:
 - a) agar oldingi harf 'fatha' harakatiga ega bo'lsa, undan keyin ʾ qo'yiladi.
قُولُ < قَالَ, سَيْرُ < سَارَ, خَوْفُ < خَافَ, طَوْلُ < طَالَ
 - b) agar oldin kelayotgan harf 'kasra' harakatli bo'lsa, و, ʾ hamda ي, ې ning o'rniga ي yoziladi. الْغَارِوُ < الْغَارِى, يَرْمِىُ < يَرْمِى, الْغَارِوُ < الْغَارِى
 - c) agar oldingi harf 'zamma' harakatiga ega bo'lsa, و, ʾ ning o'rniga ي yoziladi: قُولُ < قِيلَ, سَيْرُ < سِيرَ
 - d) agar oldingi harf 'kasra' yoki 'zamma' harakatiga, zaif undosh 'fatha' harakatiga ega bo'lsa, zaif harf bu holatda tushib qolmaydi. سَرُوتُ, نَسِيَتْ

‘Kasra’ dan so’ng kelgan > وَ ga aylanadi. دُعُو < دُعِي

2) unlining cho’ziqligini bildiruvchi belgi bo’lgan taqdirda, و va ي harflaridan keyin kelganlarda quyidagi variantlar bo’ladi:

a) agar cho’zuvchi ا bo’lsa, zaif harf tushib qolmaydi. تَلْقِيَانِ.

Lekin ‘kasra’ dan so’ng وَ ga aylanishi mumkin: قوام, قيام.

b) agar cho’ziqlik belgilar و yoki ى bo’lsa, oldingi kasrali yoki zammali harfdagi وَ يَ يَ yoki وَ تushib qoladi, undan oldingi undosh harf esa qolgan harfga munosib “harakat” oladi. تَرْمِيُون < تَرْمُون, تَرْمِيِين < تَرْمِين, تَغْرُوُون < تَغْرُوُون, لَقِيُوا < لَقُوا.

Agar oldingi harfda ‘fatha’ harakati bo’lsa, unda وَ يَ يَ tushib qoladi. Qolgan و yoki ى harfi ‘sukun’ oladi. Masalan: تَلْقِيُون < تَلْقُون, تَلْقِيِين < تَلْقِين, تَرَضُوُون < تَرَضُون.

3) Agar zaif harfdan oldin و , ا yoki ى bo’lsa:

1) zaif harf o’z harakati bilan, o’zgarishsiz qoladi: قاوم, تقاوم, قووم, ساير, تسايير, سوپر;

2) ba’zi shakllarda alifdan keyin zaif harflar ‘hamza’ bilan almashadi:

birinchi bob bo’sh fe’llarining majhul nisbat sifatdoshida: قائل < ساير, سائر < قائل, إغزائي < إغزاء, إغزائي < إغزاء, إلقائي < إلقاء, إلقائي < إلقاء.

B. quyidagi holatlarda و yoki ى sukunlik bo’ladi:

1) fathali harfan so’ng zaif undosh o’zgarishsiz qoladi: رميْتُ, غزوتُ, مولودُ, تَيْبِيْسُ.

2) kasrali yoki zammali harfdan keyin zaif harf o’z sukunini yo’qotadi, kasradan so’ng و ning o’rniga ى yoziladi, zammadan so’ng o’zak ى ning o’rniga و yoziladi. لَقِيْتُ < لَقِيْتُ, سَرُوتُ < سَرُوتُ, تَيْبِيْسُ < تَوْبَسُ, إِيصَالُ < إِيصَالُ.

IV. Soʻz oxirida quyidagi holatlar roʻy berishi mumkin:

a. Zaif harf oʻz harakatiga ega, bunda quyidagi variantlar yuz berishi mumkin

1. Agar oldingi harf sukunli boʻlsa, zaif harf oʻzgarishsiz qoladi, الرَّمْيُ، الغَزْوُ

2. Agar oldingi harf harakatli boʻlsa, unda

1) Fathadan oldin zaif harakat oʻz harakatini yoʻqotadi va choʻziqlik belgisi bilan almashadi. Agar oʻzak harf و boʻlsa, unda 3-shaxs I bob oʻtgan zamonda uning oʻrniga alif yoziladi, boshqa holatlarda ي yoziladi.

غَزَوْ<عَزَا، رَمَيْ<رَمَى، تَلَقَّى<تَلَقَى

2) Kasra va dammadan oldin:

a) Kasra yoki zamma harakatli zaif harf bu harakatni yoʻqotib, choʻziqlik belgisi sifatida qoladi, kasradan soʻng و ning oʻrniga ي yoziladi:

تَرْمِي<تَرَمِي، تَغْزُو<تَغْزُو، الْغَازِي<الْغَازِي

b) Fathali zaif harf oʻz harakatini saqlab qoladi, bunda kasradan soʻng و harfi ي ga aylanadi. تَغْزُو، تَرْمِي. Lekin الْغَازِي oʻrniga الْغَازِي boʻladi.

3. Agar zaif harfdan oldin choʻziqlik belgisi boʻlsa:

1) Alifdan soʻng zaif harf hamza bilan almashadi، التَّقَاءُ

2) Zaif harf bilan و dan soʻng quyidagi oʻzgarishlar roʻy beradi:

a) Uchinchi oʻzagi و boʻlganda ikkita و ham tashdid ostida birlashadi، مَدْعُو، مَغْزُو

b) Uchinchi oʻzagi ي boʻlgan soʻzlarda choʻziqlik belgisi و bilan almashadi va tashdid ostida birlashadi. مَرْمُوي<مَرْمِي، المَلْقُوي<المَلْقِي

B. Bu modeldagi soʻzda zaif harf oxirda tursa va sukunli boʻlishi kerak boʻlsa, unda u butunlay tushib qoladi، تَرْمُ، تَغْزُ، تَلَقَّ.

V. agar zaif harf tashdidga ega bo'lsa (bo'sh fe'llarning II va IV boblarida), u o'zgarmaydi, **قَوْمٌ, نُفُوءٌ, قَوْمٌ.**

To'g'riga o'xshash fe'llar

To'g'riga o'xshash fe'llar deb bizning grammatikada birinchi o'zak harfi zaif bo'lgan fe'llarga aytiladi.

Bu fe'llarning tuslanishi to'g'ri fe'llardan unchalik farq etmaydi. Shu faktdan ularning nomlanishi tushuniladi. II, III, V va VI bob fe'llari to'g'ri fe'llar kabi tuslanadi. VII bob fe'llari kam uchraydi. Bo'lsa ham to'g'ri fe'l tuslangan kabi tuslanadi. **وجد<اَنُوجد.**

Birinchi o'zagi و bo'lgan fe'llar

Bu turdagi fe'llar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Hozirgi zamonda o'rta o'zagi i yoki a bo'lgan fe'llar, buyruq mayli va aniq nisbatda birinchi o'zak harfi tushib qoladi, **وصل, يصل, صِلْ, وسع, يسع, سَع.**
2. Bu fe'llarning **فَعْلَةٌ** vaznidagi harakat nomi ham o'z bo'g'insiz unlini yo'qotadi, **هبة<وهب, صفة<وصف.**
3. Hozirgi zamonda o'rta o'zagi a harakatiga ega bo'lgan ba'zi fe'llar va u harakatiga ega bo'lgan barcha fe'llar birinchi o'zak harfni yo'qotmaydi, **وجل, يُوَجِّل, وَجَّة, يُوَجِّهُ.**
4. VIII bobda zaif undosh ushbu bobning ko'rsatkichi bo'lmish **-t-** bilan assimilyatsiyaga kirishadi. **وصل<اتَّصل.**
5. Boshqa shakllarda zaif و umumiy qoida bo'yicha o'zgaradi. **إيجاد<إيجاج, استئصال<استئصيل.**

Birinchi o'zagi ي bo'lgan fe'llar

Bu turdagi fe'llar hozirgi zamon va buyruq maylida zaif undoshni yo'qotmaydi.

VIII bobda bu fe'llar yuqoridagiga o'xshab –t- bilan assimilyatsiyaga kirishadi, **يسر** < **أَسَرَ**.

Birinchi o'zagi و hamda ikkilangan fe'llar

Bu fe'llar to'g'riga o'xshash va ikkilangan fe'llar kabi tuslanadi.

Bo'sh fe'llar

Bo'sh fe'llar deb ikkinchi o'zak harfi zaif undosh fe'llarga aytiladi. Ular bo'sh deb atalishining sababi, yuqorida keltirilgan qoidalarga muvofiq o'rta o'zak undosh o'rniga cho'ziq unli keladi, ba'zi holatlarda qisqa unliga o'zgaradi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarni qo'llashning maxsus holatlari:

1. Zaif o'zak cho'ziq undosh bilan quyidagi shakllarda almashadi:

Hozirgi zamon aniq va majhul nisbatda, **يَقُولُ** < **يَقُولُ**, **يَخَافُ** < **يَخَافُ**, **يُقَوْمُ** < **يُقَوْمُ**.

O'tgan zamon uchinchi shaxsda, **قَامَ** < **خَافَ**.

2. Cho'ziq undoshdan so'ng sukunli harf kelsa, ya'ni bo'g'in yopiq bo'lsa, cho'ziq unli qisqa unliga almashadi. Bu quyidagi holatlarda bo'ladi:\

a) Shart va buyruq mayllarida, **يَقَوْمُ**, **يَقُمُ**, **قَمَ**, **يَسِيرُ**, **يَسِرُ**, **سَر**,

b) Ko'plik muannas 2 va 3 shaxs hozirgi zamon aniq nisbatida, **يَقُولُ** < **يَقْلُنْ**, **يَبِيعُ** < **يَبِيعُنْ**

c) 1 va 2 shaxs o'tgan zamonda, **قِيلَ**, **قُلْتُ**, **أَقَامَ** < **أَقَمْتُ**.

3. O'tgan zamonda aniq nisbatda I bobda turli shaxslarda unlilar o'z xususiyati bo'yicha har xil bo'ladi. 3-shaxsda (ko'plik muannasdan tashqari) – cho'ziq a, 1 va 2 shaxslarda yopiq bo'g'inda cho'ziq unli o'z xususiyatlariga ko'ra qisqaradi (fe'lidan **ليس** tashqari):

- IV va X boblarda o'rtada undosh oldingi sukunning o'rniga o'tishi sababli ikkala sifatdosh ham o'z unililari bilan farq qiladi: **مُقُولٌ** < **مُقِيلٌ**, **مَقُولٌ** < **مَقِيلٌ**; **مُسْتَقُولٌ** < **مُسْتَقِيلٌ**.

Illatli fe'llar: o'zak harflaridan bittasi yoki ikkitasi illatli harf bo'ladi. Illatli harflar: و, ا, ي, dir. Misol: طوى, وفى, رمى, دعا, باع, صام, وجد.

To'g'ri fe'llar bu o'zak harflari illatli bo'lmagan fe'ldir.

Illatli fe'llarning turlari:

وعد, ya'ni to'g'riga o'xshash. Uning birinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. المثال, وجل, ينس, ينع.

قال, ya'ni bo'sh fe'llar. Bu fe'llar ikkinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. الأجوف, سار

دعا, noqis fe'llar. Bu fe'llarning uchinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. الناقص, بني, سرو, رضي

To'g'ri fe'llarning turlari:

أمن, سأل, بدأ, hamzali fe'llar. O'zak harflaridan bittasi hamza bo'ladi. المهموز, المضعف, ikkilangan fe'llar, bunday fe'llar ikki xildir.

Uch o'zakli ikkilangan fe'llar, u o'rta va oxirgi harfi bir xil xarflardan iboratdir. Arab tilida bu fe'llar مضعف ثلاثي deyiladi: جفّ, شدّ, هزّ

